



HAVASKORLIK MUSIQA IJROCHILIGI JAMOASIDAGI O'QUV-IJODIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Muallif: Muhammadiyev Muslimbek Rustam o'g'li¹

Affiliatsiya: Namangan davlat universiteti San'atshunoslik kafedrasи stajyor-o'qituvchisi¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14466363>

ANNOTATSIYA

Havaskorlik musiqa ijrochiligi jamoasidagi o'quv-ijodiy ishlarni rejalashtirish va tashkil etish rahbardan yetarli darajada bilim, ko'nikma hamda tashkilotchilik jihatlarini namoyon qilishni talab etib, ushbu maqolada havaskorlik musiqa ijrochiligi jamoasidagi o'quv-ijodiy ishlar, ularni tashkil qilishdagi o'ziga xosliklar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: musiqa ijrochiligi, ijodiy ishlar, ansambl, mashg'ulot jarayoni, ijro qobiliyati.

Bugungi kunda shaxs kamolotida musiqa, jismoniy tarbiya va harbiy vatanparvarlik fanlarining o'rni beqiyos bo'lib, maktablarda ta'lif-tarbiya sifatini oshirishda ushbu fanlarni o'qitishni takomillashtirish hamon dolzarb bo'lib qolmoqda [1]. Badiiy jamoalarning amaliy faoliyati shuni ko'ssatadiki, xonandaning musiqiy asarni ijro etishdagi ishtiroki, mashg'ulotlarda muntazam qatnashishi, konsertlardagi chiqishi bilan o'z-o'zidan axloqiy va estetik madaniyat hosil bo'lib qolmaydi. Ushbu jarayonda musiqa ijrochiligi jamoasi a'zolari o'quv va tarbiyaviy ishlar mobaynida tizimli ravishda o'zlarining ko'nikma va qobiliyatlarini rivojlantirishlari, san'at borasidagi bilimlarini kengaytirishlari lozim. Jamoadagi ishtirokchilar qo'shiq aytishni, cholg'uda ijro etishni, raqs tushishni o'rganadilar. Ammo, o'quv-tarbiyaviy ishlar tashkil etilmasa, bu ularning odob-axloqiga ta'sir qilishi mumkin. Bu holat jamoadagi ishtirokchilarning umumiyligi rivojlanishi va tarbiyasiga, axloqiy madaniyati va o'zini tutishiga yetarlicha e'tibor berilmaganligini anglatadi [2].

Havaskorlik musiqa ijrochiligi o'z faoliyatini ma'lum bir cholg'u chalishni yoki qo'shiqlar kuylashni o'rganishdan boshlaydi. Bu o'quvchidan katta sabr-toqat, chidamlilik talab qiladi. Bu holat havaskor musiqa ijrochisi o'quv jarayoni vaqtining cheklanganligi bilan yanada murakkablashadi. Havaskorlik musiqa ijrochiligini o'rganish uchun belgilangan muddat musiqa maktabi yoki musiqa to'garaklaridagi kabi 5-8 yil emas, balki 5-6 oydan bir yilgacha muddatni tashkil etishi mumkin. Bu havaskor ijrochining qobiliyati va asarni qanchalik tez o'zlashtirishiga bog'liq.

Havaskorlik musiqa ijrochiligi o'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish uchun o'qituvchi musiqa ijrochiligini o'rgatishda kam vaqt va kuch sarflagan holda maksimal samaradorlikni ta'minlaydigan metodikani bilishi kerak. Yangi tashkil etilgan havaskorlik musiqa ijrochiligini o'rgatishda uchta asosiy shakldan foydalanadi: individual, kichik guruh va jamoaviy. Havaskor musiqa ijrochiligini tashkil etishning

o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, bir vaqtning o'zida 15-20 kishini musiqa ijrochisi sifatida tayyorlash zarur bo'lganda, kichik guruhli mashg'ulotlar shakli eng qulay va asoslidir. Musiqiy ta'lif muassasalaridan farqli o'laroq, havaskorik musiqa ijrochiligi rahbariga vaqt yetishmasligi sababli mashg'ulotlarni yakka shaklda tashkil etish hamda har bir o'quvchi bilan alohida va ishslash imkoniyatiga ega emas. U jamoani birma-bir yig'ishga va ular bilan mashg'ulotlar o'tkazishga majbur. Shu bilan birga, 2-3 guruh bir-biriga yaqin joylashgan turli xonalarda shug'ullanishi mumkin. Har bir guruh asar ijrosi yuzasidan ma'lum bir topshiriqni oladi va uni o'qituvchining nazorati ostida bajaradi.

Cholg'u guruhlarini tuzishda orkestr a'zolarining qobiliyati, individual farqlarini hisobga olish kerak. Ularning barchasi ham berilgan vazifani bir xil darajada tez o'zlashtira olishmaydi. Shuning uchun mashg'ulot jarayonida har bir ishtirokchini tayyorlashda ularning ijro paytidagi zaif tomonlarga e'tibor qaratish va shunga qarab tegishli o'quv adabiyotlari va vositalarini tanlash muhim jihat hisoblanadi [3]. Birinchi yilda vazifalarni imkon qadar xilma-xilagini ta'minlash maqsadga muvofiqdir. Ushbu davr sozandalarning mashg'ulotlarga nisbatan psixologik tarafdan tayyorligi va munosabati nuqtai nazaridan murakkab hisoblanadi. Bir yarim soatdan ikki soatgacha mashq qilish paytida bir xil texnikani, tovushni, zarbni va boshqa jihtlarni ishslash sozandani zeriktiradi. Shuning uchun cholg'uga qo'l va barmoqlarni qo'yish, to'g'ri moslashishni rivojlantirish, ijro texnikasini o'zlashtirish bilan bir qatorda, musiqiy savodxonlikni o'rganish, kichik kuylarni yodlash kabi nazariy bilimlarni egallash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jamoa a'zolarining cholg'u ijrochiligiga va mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishini yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Ijro qobiliyati jihatdan orqada qolayotgan jamoa a'zolari bilan alohida ishslash zarur. Guruhli mashg'ulotlar jarayonida ularning xatolarini tuzatish qiyin. Asar ijrosini o'zlashtirishda qiynalayotgan sozandalar bilan yakka mashg'ulotlar tashkil etish ularga vazifani tezroq o'zlashtirish va bu orgali orkestrning umumiyy darajasiga yetib olish imkoniyatini beradi. Havaskorlik jamoasida vazifalarni yaxshi o'zlashtirayotgan orkestr ijrochilariga mashqlar, etyudlarni o'rganish uchun berilishi mumkin [4].

Vazifalarni yaxshi o'zlashtirayotgan ijrochilar bilan yakka mashg'ulotlar o'tkazish ularning ijrochi sifatida tezroq shakllanishiga yordam beradi. Cholg'u ijrochiligini o'rganish bilan bog'liq boshlang'ich mashg'ulotlar 40-50 daqiqadan oshmasligi lozim. Mashg'ulotning keyingi bosqichlarida vaqt me'yorlarini oshirgan holda nota savodxonligi va dirijorning qo'l harakatlarini o'rganishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

Cholg'u ijrochiligini puxta egallab, zarur nazariy bilimlarga ega bo'lgandan so'ng orkestr bilan mashg'ulot o'tkazish mumkin. O'tilgan mavzularni yanada mustahkamroq o'zlashtirish, mashg'ulot paytida olingan nazariy bilim, ijro texnikasini mustahkamlash, asar partiyalarini yaxshiroq yodlash uchun rahbar uyga vazifa berishingiz mumkin. Biroq, ular maktabdagidek xarakter kasb etmasligi kerak. Ya'ni ularga majburiy tekshirish va baho qo'yish kabi jihatlar qo'shilishi kerak emas. Aksariyat ishtirokchilar dastlab cholg'u ijro qilish murakkab jarayon ekanligni yetarlicha his qilmaydilar. Ularning fikricha, cholg'u ijrochiligini o'zlashtirish qiyin emasdek tuyuladi. Keyinchalik, ular cholg'uni o'zlashtira boshlaganlarida, orkestrda mashq qilishga keskin, salbiy munosabat paydo bo'lishi mumkin. Bunday holda, ishtirokchilar o'zlarining qobiliyatlariga bo'lgan ishonchni yo'qotishi, ular o'zlarida cholg'u ijrochiligini o'zlashtira olmaslik hissini tuyishlari mumkin. Shu bois, havaskor cholg'u jamoasi rahbari

sozandalarning kichik yutuqlarini ham yuksak darajada e'tirof etishi, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlshi, bu orqali ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishi kerak. Ammo bu erda bitta qoidaga qat'iy rioya qilish kerak: agar ishtirokchi cholg'u ijro etishning asosiy jihatlarini kerakli darajada o'zlashtirmagan bo'lsa, u holda mustaqil ishslash jarayonida muhim jihatlarga e'tibor qaratmagan hisoblanadi.

Orkestrda jamoaviy ijro etishning muhim sharti - bu sozandalar tomonidan butun orkestr uchun notani to'g'ri o'qish qobiliyatini o'zlashtirishdir. Orkestrning dastlabki mashg'uloti paytida tanlangan asar notasini birinchi marta o'qishda jamoaning barcha a'zolari birdek o'qiy oladigan tempda ijro qilish zarur. Bunda [5]:

- partiyadagi notaning cholg'uda joylashgan joyini topish;
- notaning davomiyligini, sadolanishi va unga mos shtrix tanlash;
- dirijorning harakatlarini kuzatish va talablarini bajarish kabi jihatlarni hisobga olish kerak.

Asar ijrosi paytida bunday ma'lumotlarni darhol anglab yetish va unga munosabat bildirish uchun sozandaga mustahkam bilim, ko'nikmaga ega bo'lishi talab etiladi.

Ularning jamlanishi uzoq muddatli jarayon bo'lib, mashg'ulotlarning muntazamligi, izchilligi va mohirona tashkil etilishini talab qiladi. Nota o'qishni eng oddiy repertuarlardan boshlash kerak. Masalan, mashhur xalq kuylari, fortepiano klavirlarining sodda ko'rinishlari, murakkab bo'limgan musiqiy kalitlarda yozilgan va musiqiy belgilari kam bo'lgan asarlar shular jumlasidandir. Mazkur asarlar asosan sekin tempda yozilgan bo'lishi maqsadga muvofiq. Notalarni tezroq o'qish uchun jamaa a'zolariga partiyani vizual ravishda tahlil qilish, asarning o'lchovini, ritmini hisobga olgan holda, eng qiyin joylarni belgilashga undash, barmoqlarning joylashuvini tuzish (applikatura) va notalarni baland ovoz bilan sanab ijro qilish uchun bir necha daqiqa vaqt berish foydalidir. Orkestr a'zolari notani o'qish ko'nikmalarini yanada rivojlantirish uchun asarlarni xarakter, temp, dinamika jihatidan asta-sekin murakkablashtirib borish mumkin. Har mashg'ulotda 15-20 daqiqa davomida notani o'qish bilan shug'ullanish kerak. Jamoa ijodiy faoliyatining taqdiri ko'p jihatdan ushbu ko'nikmalarni egallash tezligiga bog'liq. Asarni o'rganishdan tortib, uni ijro etishga qadar bo'lgan butun jarayon nota matnini to'g'ri o'qish va tezkor tahlil qobiliyati bilan bog'liq. Bu jihat o'z navbatida, jamoaning muvaffaqiyati, repertuarning yangilanishi va kengayishi, uning turli madaniy tadbirlardagi ishtiroki, konsertlar uchun juda muhim bo'lgan va ohir-oqibat tomoshabinlar tomonidan tan olishini ta'minlaydigan jihat hisoblanadi [6].

Ushbu tadqiqot davomida sohaga doir O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, adabiyotlar, soha olimlarining ilmiy tadqiqot ishlari bilan tanishib chiqdim va quyidagi xulosaga keldim. Yosh avlodga ham mumtoz, ham zamonaviy milliy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahra olishga darsdan tashqari to'garak mashg'ulotlarida e'tibor qaratish katta ahamiyatga ega. O'zbekistonda musiqa san'ati, tasviriy va amaliy san'at sohalarida katta muvaffaqiyatlarga erishilganligi tasodif emas. Bu san'at turlari chet elda ham e'tirof etilgan. Milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalarini targ'ib qilish va ommalashtirish yosh avlodni ma'nnaviy tarbiyalashning muhim jihatni sifatida qaralishi lozim. Umumiyo o'rta ta'lim maktablarining musiqiy to'garaklarida mashg'ulotlarni tashkil etish, sinfdan tashqari ta'lim-tarbiya ishlarni tizimlashtirish, eng ko'p qo'llaniladigan xor shakllari (jamaa bo'lib kuylash) bilan ishslash, dramatik to'garak, xalq cholg'u asboblari to'garagi, raqs to'garagi, vokal va folklor

to'garaklarini shakllantirish va ular faoliyatini tartibga solishda ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2022 yildagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-112-sonli qarori.

Akbarov A. "Musiqa lug'ati" – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 1997-yil.

Kargin A. "Работы с самодеятельным оркестром русских народных инструментов". – Moskva: "Musiqa" nashriyoti, 1984-yil.

Toshmatov E. "Dirijorlik" darslik. – Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat" nashriyoti, 2008-yil.

Toshmatov O', Beknazarov X. "Cholg'ushunoslik" darslik. – Toshkent: "Turon-lqbol" nashriyoti, 2018-yil.

Toshmatov O', Turatov S. "Ko'hna cholg'ular ijrochiligi" o'quv qo'llanma. – Toshkent: "Tafakkur" nashriyoti, 2016-yil.

